

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA XORIJIY TILLARNI INTERFAOL USLUBLARDA O'RGATISH

Payziraxmonova Setora Muhammadali qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'linda ingliz tili yo'nalishi

2-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: N.N. Zubaydova

Annotatsiya: Hozirgi kunda chet tillarini zamonaviy metodlardan foydalangan holda o'rgatish ommalashmoqda. Bu metodlarni qo'llashdan asosiy maqsad -dars samaradorligini yanada oshirish va o'quvchilarning tanqiydiy fikrlash ko'nikmasini shakillantirish. Ushbu maqolada maktabgacha va boshlangich ta'linda bolalar uchun chet tillarini interfaol usullarda o'qitish hamda ulardan foydalanish usullari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Metod, interfaol metod, qiziarli o'yinlar, motivatsiya, ko'rgazmali qurollar, materiallar.

Kirish

Bugungi kunda ikki tilni bilish shunchaki qiziq emas, balki zamon talabi bo'lib bormoqda. Har bir soha vakili yetuk mutaxassis bo'lishi uchun o'z ona tilidan tashqari, dunyo tillaridan ikki-uchtasini bilishilar va muloqot qila olishlari maqsadga muvofiqdir. Til o'rganish qancha erta boshlansa shuncha til o'rganish ko'nikmasini egallash darajasi oshadi. Sababi kichik yoshdagagi bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish ularning shaxsiy rivojlanishini ya'ni zamonaviy dunyodagi ko'p tilli va ko'p madaniyatli vaziyatlarga moslashish, uni yangi til dunyo bilan tanishtirish uchun qulay sharoit yaratish imkonyatini beradi. Buning uchun xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish tizimini yanada zamonaviy metodlar bilan takommilashtirish hamda chet tillarini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'lilot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Bilamizki, kichik yoshdagagi bolalar ko'proq o'yin mashg'ulotlariga qiziqishadi shu sababdan ularga chet tillarini o'rgatishda turli xil o'yin metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi

Interfaol metod — ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtaqidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limga asosiy mezonlari:

norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.^[1].

O'rta va o'rta maktablarda interfaol o'qitish usullari fikrlash va intellektni rivojlantirishga qaratilgan (loyiha faoliyati, miya hujumi, bahs-munozaralar), jamiyat bilan o'zaro aloqalarni (bosqichma-bosqich, o'ynash hollari) o'z ichiga oladi. Misol uchun ingliz tilini o'rgatish paytida ingliz bayramlarini nishonlash o'ziga xos madaniy istiqbolni taqdim etishi va tilni tushunishini yaxshilash mumkin.

Maktabda interfaol mashq qilish deyarli barcha texnikani qo'llash imkonini beradi. Boshlang'ich maktabda o'qitishning intefaol usullari quyidagilar: hikoya-o'yini va imitatsiya o'yinlari; bosqichma-bosqich; assotsiatsiya o'yinlari va boshqalar. Masalan: "Men nima haqida o'ylayapman" (What I am thinking of) o'yini va "Ohirda qolgan odam" ("Last man Standing") o'yini inetrfaol metodlarning bir ko'rinishi bo'lib, ushbu metodlarni qo'lash dars samaradorligini oshiribgina qolmay bolalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini ham shakllantiradi. Quyda ushbu o'yinlar batafsil bayon etiladi.

What Am I Thinking Of? (Men nima haqida o'ylayapman?). Ushbu o'yinda o'quvchilarni juftliklarga ajratib chiqiladi. Har bir o'quvchi bir varoq qog'ozga biror buyumni tasvirlab 5-10ta so'z yozishi kerak bo'ladi. Masalan (daftar kitob ruchka sumka, qalam): o'quv-quroollarini, (olma, anor, uzum, behi, nok) mevalarni ifodalaydi. O'quvchilar berilgan misollar kabi sheriklari yozgan so'zlarning ummumiy nomlanishini ingliz tilda topishlari kerak bo'ladi. Qachonki vaqt tugaganida, o'quvchilar varoqlarini almashtirishadi va sherigi nimani tasvirlaganini aytishga harakat qiladi. So'zlarni to'g'ri topgan birinchi jamoa go'lib bo'ladi.

Last Man Standing (Oxirgi qolgan odam). Bu o'yin tezkor o'yin hisoblanadi. Lekin, o'quvchilarga o'ylash uchun biroz vaqt beradi. Bu o'yin birgalikda o'rganishga undaydi, ya'ni boshqa o'quvchilar so'zlayotganida qolgan o'quvchilar o'zları so'z o'ylayotgan bo'lishadi. O'yinni o'ynash uchun sizga kopto'kcha kerak bo'ladi. Va hamma o'quvchilar doira shaklida turib olishlari kerak. Birorta mavzu tanlashingiz kerak bo'ladi. Masalan: Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo. Biror o'quvchiga to'pni uloqtirish orqali o'yin boshlanadi. O'sha o'quvchi mavzuga doir biror inglizcha so'z aytadi va to'pni keying o'quvchiga uloqtiradi. To'pni qabul qilgan har bir o'quvchi shu mavzuga doir biror so'z aytishi kerak bo'ladi. Agar ular aytilgan so'zlarni qayta aytsa yoki bir necha soniya ichida so'z topa olmasa, ular o'yindan chiqadi va o'yinni o'tirgan holda kuzatadi. Havotir olmang,

ular baribir o'rganayotgan bo'ladi. Bu o'yin biroz boshqacharoq qilib o'zgartirish ham mumkin. Biror mavzuga so'z aytish o'rniga, har bir o'quvchi keyingi o'quvchiga biror boshqa mavzu aytishi mumkin. Masalan, "say something red" (biror qizil narsani aytning) deb o'yinni boshlash mumkin. Kopto'kni ushlab olgan birinchi o'quvchi "strawberry" deb keyin o'zi biror mavzu tanlab ko'ptokni boshqasiga uloqtirishi mumkin. Bu o'yinni biroz murakkablashtiradi, sababi o'quvchi biror so'z haqida o'ylashidan oldin, qaysi mavzuga doir so'z o'ylashi kerakligini ham bilishi lozim.[²]

Dars mashg'lulotlarini tashkil etishda ko'rgazmali qurollar, turli xil tarqatma materiallaridan va qiziqarli o'yinlardan foydalanish bolalarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishini va motivatsiyanini oshiriga sabab bo'ladi. Motivatsiya - bu bolaning ichki dunyosining ko'p bosqichli o'zaro ta'sirining natijasi - birinchi navbatda, uning ehtiyojlari va bu ehtiyojlarni qondirishga qodir bo'lgan rag'batlantirishlar, shuningdek, rag'batlantirishni idrok etish amalga oshiriladigan va unga qaratilgan faoliyat paydo bo'ladigan vaziyat. uni qabul qilishdir.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Ushbu usullarning afzaliklari o'quvchilarning darsga bo'gan e'tiborini va qiziqishini oshirishga imkon yaratishdir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. .[<http://manzura90.zn.uz/interfaol-metodlar/>]
2. <https://hasanboy.uz/ingliz-tili-darslarida-qiziqarli-oyinlar/>
3. <https://moluch.ru/archive/316/72186/>
- 4 <https://fledu.uz/uz/bolalarga-til-orgatish-metodikasi/>